IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 02 IYUL 2026

QADIMIY XORAZM TARIXI VA UNING SHAKLLANISHI

Kamolova Kamila Kulniyazovna
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21715949

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimiy Xorazm tarixi uning kelib chiqishi, rivojlanishi va taraqqiy topishi haiqidagi ma’lumotlar yozilgan. SHuningdek maqolada Xorazmning buyuk insonlari, askarlari va rivojlanishiga o‘zlarining munosib xissasini qo‘shgan insonlar ham yozilgan. Xorazmning tarixi balki bugungi kundagi yuksalishlari haqida ham yozilgan.
Kalit so‘zlar: zamin, diyor, mamlakat, irmoq, shahar, ekspozitsiya, ibodatxona, rasadxona, otashparas, ibtidoiy, jamoa, arxeologik.

Аннотация: В данной статье представлена информация о древней истории Хорезма, его происхождении, развитии и этапах становления. Также в статье рассказывается о великих людях Хорезма, его воинах и личностях, внесших достойный вклад в развитие этого края. Кроме того, освещается не только историческое прошлое Хорезма, но и его достижения и успехи в наши дни.
Ключевые слова: земля, край, государство, река, город, экспозиция, храм, обсерватория, огнепоклонник, первобытный, община, археологический.

Abstract: This article provides information about the ancient history of Khorezm, its origin, development, and stages of progress. It also describes the great people of Khorezm, its warriors, and the individuals who made significant contributions to the development of the region. Furthermore, the article highlights not only the historical past of Khorezm but also its achievements and progress in the present day.
Keywords: land, region, state, river, city, exhibition, temple, observatory, fire worshipper, primitive, community, archaeological.

Xorazm (arabcha: خوارزم, õzbekcha: Xorazm, turkmancha: Horezm, turkcha: Harzem) — Amudaryo sohillarida markazga ega O‘rta Osiyo qadimiy mintaqasi — qadimiy davlat[1][2][3] va rivojlangan irrigatsiyali dehqonchilik, hunarmandlik va savdo mintaqasi. Xorazm orqali Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan. III asr oxirlarida Xorazm poytaxti Kat shahri bo‘lgan; X asr oxirlarida poytaxt Ko‘hna Urganch shahriga ko‘chiriladi. Xorazm hududi qadimda Amudaryo adoqlaridan janubga tomon Murg‘ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho‘zilgan. Shu boisdan bu qadimiy tarixiy hudud fanda 2 xil: Qadimiy Xorazm va Katta Xorazm nomlari bilan ma’lum. Xorazm haqidagi ilk ma’lumotlar Avesto, Doro I ning Behistun kitoblari, qadimiy yunon mualliflari (Gekatey, Gerodot, Strabon va hokazo) hamda ilk o‘rta asrlarning arab geograflari asarlarida mavjud.

Avestoda Xvarizem qadim forschada Xvarazmish, lotinchada Chorasmia va yunonchada Xorazmiya deb yuritilgan. Arabcha yozma manbalarda bu hudud Xvorazm talaffuzida tiliga olinadi. “Xorazm” nomining semantikasi haqida bir qancha fikrlar mavjud. Xorazm tarixining bilimdoni S. P. Tolstov “Xorazm” nomi talqinlari orasida “Quyoshli o‘lka”, “Quyoshli yer” deb atalishi haqiqatga eng yaqin etnonimdir deb ta’kidlasada, Xorazmni “Xvarri yoki Xarri (Xurriy) xalqi vatani”, “quyosh (xalqi) zamini” deb izohlaydi. Sug‘dshunos olim M. N. Bogolyubovning fikricha, Xorazm alohida 3 ta so‘zdan tarkib topgan. Xu (Xush, Xash), var (vara) va zm (zim, zem). Eroniy tillarda Xu - “yaxshi” “ma’qul”, var (vara) — “devor”,

“marza”, “fob”, “qal’a”, “qo‘ra” degan ma’nolarni bildirgan. Zm (zim, zem) esa — “zamin”, “hudud”, “diyor”, “mamlakat” kabi ma’nolarni anglatgan. Xorazm nomi “xur zamin”, boshqasiga ko‘ra “ko‘hna zamin” degan ma’noni anglatgan.[4] Avestoning “Yasht” qismida Xorazm “Ming irmoqli daryo”, “Ko‘llar va o‘tloqlarga boy o‘lka” sifatida madh etiladi. Qadimiy Xorazm hududi tabiiy jihatdan 2 mintaqaga ajralgan. Uning shimoliy qismida Amudaryo etaklarida behisob sersuv o‘zanlar, shimoliy va shimoliy sharqqa tomon yastangan keng yaylovlardan iborat bepoyon pastekisliklar, uning janubiy qismida esa, Murgob va Tajan daryolari vodiylarining kattagina qismi tog‘ va adirliklar va ulardan bo‘sh qolgan katta-kichik daryo jilg‘alar etaklarida yuzaga kelgan hosildor yerlar joylashgan. Akademik V.Bartoldning yozishicha, Beruniy Xorazmning qadimiy poytaxti bo‘lgan[5]. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi ishtirokchisi, tarix fanlari doktori E. Nerazik, “Kat”, “Kas” “shahar” ma’nosini bildirgan, Xorazm aholisi o‘zlarining qadimiy poytaxtlarini shunday atashgan[6].

S. P. Tolstovning ta’kidlashicha, Beruniy, al-Maqdisiy va Yoqutlarning ma’lumotlari Beruniy mamlakatning eng qadimgi poytaxti ekanligi haqida doimo gapiradi. Ilk o‘rta asr mualliflarining fikricha, Beruniy „Xorazm shahri“ bo‘lgan[7]. O‘zSSR Fanlar akademiyasi akademigi Y. G‘ulomovning fikricha, bu shaharning tarixi murakkab. U Xorazmning qadimiy poytaxtini “Xorasmiy” deb atagan Miletlik Gekateyni (miloddan avvalgi VI-V asrlar) nazarda tutgan. Ilk arab mualliflari Ibn-Rusta va Ibn-Fazionlar mamlakat poytaxtini “Xorazm”, Y. G‘ulomov G. Miletskiyning “Xorasmiy” shahri arab mualliflarining fikricha «Xorazm»shahri bo‘lishi mumkinligini ta’kidlagan[8]. Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a’zosi, tarix fanlari doktori M. Itina, Y. G‘ulomov Xorazm shahri Xorazmning qadimiy poytaxti Beruniy o‘rnida joylashganligini ta’kidladi[9]. Xorazm tarixi bo‘yicha yirik mutaxassislar, tarix fanlari nomzodlari S. Bolelov va X. Yusupov Xorazmning arxaik davrda (miloddan avvalgi VI-V asrlar) eng qadimgi poytaxti (markazi) shahar[10]

Ko‘zaliqir (hozirgi nomi)[11][12][13] deb hisoblaydi. Sovet va rus tarixchisi va arxeologi Y. Rapoport, Ko‘zaliqir (zamonaviy nomi) Miletlik Gekateyning „Yerning tavsifi“ asarida tilga olingan qadimgi Xorazm shahridir[14]. Saroy joylashgan Ko‘zaliqir qadimiy manzilgohi Xorazm tarixining arxaik davrining eng yirik yodgorligidir[15]. Bu yerda Xorazmning eng qadimgi kulolchilik mahallasi ham mavjud bo‘lgan[16]. M.Itinaning yozishicha, Y. Rapoport, X. Yusupov va A.Hakimovlar Xorazmning antik davrda (miloddan avvalgi V-IV asrlar) poytaxti Qal’aliqir (zamonaviy nomi)[12][13][17] bo‘lib, uning 1 qal’asi 63 gektardan ortiq maydonga ega bo‘lgan. Unda Xorazmdagi eng yirik qadimiy aholi punkti bo‘lgan saroy ham bo‘lgan[18] (1963-yil ma’lumotlariga ko‘ra). Qadimiy Xorazm mintaqalari hududlarining o‘ziga xos tabiati, shubhasiz, qadimiy aholining turmush tarzini belgilabgina qolmay, balki bu diyorda yuzaga kelgan qadimiy madaniyatlarning shakllanishi, rivoji va bir-biriga qorishuviga ham kuchli ta’sir etgan. Shu boisdan Xorazmning shimoliy qismi (Oqchadaryo deltasi)da miloddan avval IV—III ming yilliklarda ovchilik va baliq ovlash bilan kun kechirgan aholi (qarang Kaltaminor madaniyati) yashagan bo‘lsa, miloddan avval 2-ming yillikda esa chorvachilik va dehqonchilikning soddagina usullaridan xabardor bo‘lgan qabilalar (qarang Tozabog‘yop madaniyati va Suvyorgan madaniyati) istiqomat qilgan. Miloddan avval 2-ming yillikning 2-yarmiga borganda, xususan, uning oxiri va miloddan avval 1-ming yillik boshlari (IX—VIII asrlar) da sug‘orma dehqonchilik mukammallashib, yaylov chorvachilik rivoj topgan (qarang Amirobod madaniyati). Bu davrda Tozabog‘yop, Suvyorgan va Amirobod madaniyatlarini yaratgan qabilalarning qorishmasi asosida tarkib topgan Kavundi (Kavondi) qabilalari yashagan. Ular Xorazmning qadimiy aholisi massagetlarning bevosita ajdodlari bo‘lgan. Ko‘chmanchi chorvachilik, xususan, yilqichilikning rivoji Xorazm aholisining ijtimoiy hayotiga ham kuchli ta’sir etib, suvoriylar tabaqasini shakllantirgan. Xorazmning janubiy qismida joylashgan vodiy va vohalar (Tajan, Herirud, Murg‘ob va Gyoksur) da esa miloddan avval VI—III 1-ming yilliklardayoq o‘troq sug‘orma dehqonchilik madaniyati qaror topib,

taraqqiy qilgan. Bu davrlarda ushbu mintaqa aholisi qabilalar uyushmasiga birlashib, dehqonchilik xo‘jaligida motiga (ketmon)dan tashqari omochdan hamda har xil katta-kichik sug‘orish inshootlaridan ham foydalangan. Avval ular somonli guvalalardan bir xonali, so‘ngra esa ko‘chalar bo‘ylab guvala va xom g‘ishtlardan bir necha xonali uylar bino qilib, atrofi devor bilan o‘ralgan turar joy va istehkomli qishloqlar barpo etgan (qarang Joytun madaniyati va Namozgohtepa). Miloddan avval 2 ming yillik oxiri — 1-ming yillik boshlarida qadimiy sug‘orma dehqonchilik madaniyatining hududlari sharq va janubiy-sharq tomon kengayib, Herirud vodiysining yuqori oqimigacha yoyilgan. Shu boisdan Avestoda Xvairizem o‘lkasi Areyadan sharqda Hilmand vodiysida joylashgani haqida ishora qilinadi. Arxeologik ma’lumotlarning guvohlik berishicha, aynan shu davrda Amudaryo etaklarida yashagan ko‘chmanchi chorvador qabilalarning 1 qismi janub tomon siljib to shimoliy Hindiston hududlariga qadar borib o‘rnashgani kuzatiladi. Miletlik Gekatey (miloddan avval VI asr) ma’lumotlari asosida Gerodot (miloddan avval V asr) ahamoniylar davridan avval girkanlar (Kaspiy dengizining janubiy-sharqi, Gurgon daryosi havzasi), parfiyaliklar (Shimoliy Xuroson), dranglar va tamanaylar (G‘arbiy Afg‘oniston)ning hududlari bilan tutashgan keng o‘lkada xorazmiylar yashagani haqida ma’lumotlar keltiradi. Gerodotning yozishicha, keyinchalik, o‘lka ahamoniylarga qaram bo‘lib qolgach, tog‘ daralaridan oqib tushadigan Akes (Herirud) o‘zani darvozali to‘g‘on bilan bog‘lanib, xorazmiylarning ekin yerlari suvsiz qolgan. Ular shoh saroyiga borib arzidod qilib, suv uchun alohida soliq to‘lagach, shoh to‘g‘on darvozalarini ochishga buyurgan.

Xorazmda zardushtiylikning otashparastlar ibodatxonasi topilgan. Ibodatxona qoldiqlari Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi Xumbuz-tepa yodgorligida topilgan. Bu yerda miloddan avval VII asrdan milodiy IV asrigacha sopollar ishlab chiqarilgan. Ushbu hududda topilgan ibodatxona miloddan avval V asr oxiridan IV asr boshigacha mavjud bo‘lgan.[19] Qadimgi Hazaraspni nomi „Azar-sipand“ (Muqaddas olov) dan kelib chiqqan. Hazarasp Zardushtning va muqaddas „Avesto“ kitobini vatani deb taxmin qilinadi. Akademik S. P. Tolstov o‘zining „Qadimgi Xorazm“ asarlari va ilmiy maqolalarida Zardushtiylikning muqaddas olovi Hazaraspda yoqilganligini ta’kidlaydi. Buning tasdig‘i Humbuz-tepa ibodatxonasidir.[20]

Miloddan avval VI—V asrlarda Xorazm Ahamoniylar tomonidan bosib olingan va davlatning 16 satraplik tarkibiga kirgan. Miloddan avval V asr oxiri esa, u alohida satraplik hisoblangan va miloddan avval IV asr boshlarida mustaqillikka erishgan. Tarixiy manbalarning taqqosiy tahlilidan ma’lum bo‘lishicha, xorazmiylarning dastlabki vatani Baktriyadan janubda Areyadan sharqda, Herirud va Hilmand daryolarining yuqori havzasida joylashgan (yana q. Xorazmiylar). Shubhasiz, xorazmiylar massagetlardan farqli o‘laroq, parfyanlar, marg‘iyonaliklar, boxtariylardek sug‘orma dehqonchilik va uning asosi hisoblangan sutorish inshootlar barpo etishda boy asriy tajribaga ega edilar. Ularning ko‘p asrlik binokorlik va xunarmandchilikdagi tajribalari va amaliy ko‘nikmalari tufayli asrlar osha Amudaryo etaklari obod etilib, yirik sug‘orish tarmoqlari va suv inshootlari— dambalar barpo etilgan, hunarmandchilikning barcha sohalari keng rivoj topgan. Miloddan avval IV asr 2-yarmida Xorazmda mustaqil davlat qaror topadi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Xorazm davlatiga afsonaviy qahramon Siyovush asos solgan. Miloddan avval 328-y. bahorida O‘rta Osiyoga yurish qilgan Iskandar Maqduniy qarorgohiga muzokara qilish uchun Xorazm hukmdori Farasman 1500 suvoriy bilan tashrif buyurgan. Fanda massagetlar konfederatsiyasi (turkumi) nomi bilan tilga olingan Xorazm davlatini afsonaviy siyovushiylar, aslida esa afrig‘iylar sulolasi boshqargan. Davlat poytaxti dastlab Tuproqqal’ada bo‘lgan. Keyinchalik (305-y.) esa Kot shahriga ko‘chirilgan. Beruniy xorazmshohlardan 22 tasining nomini qayd etadi. Aversi (beti)da tojdor xukmdor, reversi (sirti)da suvoriy tasviri tushirilgan dastlabki kumush tanga Tuproqqal’adan topilgan. Tanga miloddan avval I asrga mansub. Numizmatik ma’lumotlardan

ayon bo‘lishicha, bunday shakldagi tangalar milodiy VIII asrgacha zarb etilgan. Beruniy rayonida Akchaxon-Qal‘a yodgorligi o‘rganilib, u yerda III asr oxiridan boshlab saroy ochilgan. Rasmlarning aksariyati miloddan avvalgi I — II asr boshlariga oid. Uning zallaridan birida balandligi 6 metrga teng bo‘lgan odamlar tasvirlangan noyob devor rasmlari topildi. Ulardan biri — boshida katta toj kiygan odamning tasviri. Kostyumning yoqasi odamlar va hayvonlar manzaralari bilan bezatilgan. U ko‘ylak kiygan, uni xo‘roz boshlari maskali odamlarning rasmlari bilan bezatilgan. Shimlarda uzun oyoqli va uzun bo‘yinli qushlar bilan takrorlanadigan naqsh mavjud.[21] Xorazm davlati O‘rta Osiyoda tashkil topgan o‘ziga xos eng qadimiy davlat bo‘lib, unda o‘troq ziroatkor va ko‘chmanchi chorvador aholining udumlari, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kabi xo‘jaliklar boshqaruvini asriy tizimlari mujassamlangan edi. Demak, Xorazm aholisining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan tadrijiy rivojlanish uning shimoliy va janubiy qismlarida, avval biri ikkinchisidan tubdan farqlanuvchi 2 turdagi madaniyatlar shakllangan. So‘ngra esa ularning qorishuvi oqibatida Xorazmning o‘ziga xos yuksak darajadagi madaniyati yuzaga kelib, ravnaq topgan. Qadimgi Xorazm hududida arxeologlar Quy-Qrilgan-qal’a yodgorligini tadqiq qilishdi — ibodatxona va rasadxona sifatida foydalanilgan inshoot miloddan avvalgi IV—III asrlarda barpo etilgan. Miloddan avval II asr boshlarida sak qabilalari tomonidan yodgorlik vayron qilingan. Tuzilma diametri 44 metr bo‘lgan silindrsimon ikki qavatli bino bo‘lib, uning atrofida 14 metr masofada mustahkam devorlar qurilgan; markaziy bino va devorlar orasidagi bo‘sh joy turar-joy binolari bilan qurilgan. Taxminlarga ko‘ra, markaziy bino Xorazm shohlari maqbarasi va zardushtiylar ibodatxonasi sifatida ishlatilgan. Quy-Qrilgan-qal’ada osmonning ba’zi qismlarida ba’zi yulduzlarni kuzatish mumkin edi.[22 Qadimdan G‘arbiy Osiyo, xususan, shimoliy-sharqiy Eron hududlari bilan bevosita aloqador bo‘lgan Xorazmning qadimiy mushtarak madaniyatining ko‘pgina jihatlari, xususan, badiiy madaniyati — aholisining tili, urfodatlari, uy-joylarining tuzilish tartiblari, ro‘zg‘or anjomlari, zebi-ziynatlarida o‘z ifodasini topgan. Masalan, Xorazmning janubiy qismi qadimiy obidalarida (miloddan avval VI—III ming yillik) somonli guvaladan bino qilingan sahni, ganch aralash loy suvoqli bir xonali uylar ichida o‘choq, supa, g‘alla uchun o‘ra (to‘la) bo‘lgan. Chaqmoqtosh qurollari qirg‘ich, o‘roq, randa, pichoq; suyakdan yasalgan igna, bigiz; yarmatosh; somonli loydan yasalgan sopol idishlar, ba’zilarining sirtiga qizil rang (angob) berilgan; tosh va sopoldan yasalgan ayol va turli xil hayvon haykalchalar; tosh suyak va chig‘anoqlardan yasalgan tumor, munchoq kabi taqinchoklar uchraydi. Miloddan avval IV—II ming yilliklarda esa turar joylar maydoni nihoyatda kengayib xom g‘ishtli ko‘p xonali uylardan iborat qishloqqa aylangan. Ularning girdi mudofaa devori bilan o‘ralib, otashgoh, hovlilar, tor ko‘chalar va markazida maydon paydo bo‘lgan. Qurollarining aksariyati tosh va suyakdan, qisman misdan yasalgan, qo‘lda yasalgan sopol idishlar sirtiga qora rangli geometrik va jimjimador (gilam nusxa) naqshlar, hayvon va parranda tasvirlari tushirilgan. So‘ngra kulolchilik charxi kashf etilib, bikonik nusxa idishlar, qadah va vazalar paydo bo‘lgan. Binokorlikda monumental imoratlar [ibodatxona, miyonsaroy (zal) va boshqa] qad ko‘tarib, qishloqlar esa ilk shahar shaklini ola boshlagan. Xorazm shimoliy qismining moddiy madaniyat obidalari (miloddan avval IV—III ming yillik), asosan, ovchi va baliqchi qabilalarning ulkan chaylalari chaqmoqtoshdan qadama (mikrolit) qurollar, tagi tuxumsimon sopol idishlar, chig‘anoq va jilvir toshlardan yasalgan taqinchoqyaardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kultura i iskusstvo drevnego Xorezma. M., 1981, s3.
2. Rapoport Yu. A. Kratkiy ocherk istorii Xorezma v drevnosti // Priarale v drevnosti i srednevekove. M., 1998,s.28
3. Tolstov, S. P. Drevniy Xorezm (opit istoriko-arxeologicheskogo issledovaniya). 1948, s.13

4. Rapoprot Yu. A., Kratkiy ocherk istorii Xorezma v drevnosti // Priarale v drevnosti i srednevekove. Moskva: Vostochnaya literatura, 1998,s.28
5. Bartold V. V. Sochineniya t.1. M., 1963, s.199
6. Nerazik, Ye. Ye. K probleme razvitiya gorodov Xorezma // Kultura i iskusstva drevnego Xorezma. M.,"Nauka 1981, S.224
7. Tolstov, S. P. Drevniy Xorezm. M., 1948, S.22
8. Gulyamov, Ya. G. Istoriya orosheniya Xorezma s drevneyshix vremen do nashix dney. Tashkent, 1956, s.146.
9. Drevnosti Yujnogo Xorezma. Trudi Xorezmskoy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii. T. 16. M., 1991, s.13
10. Rapoport Yu. A. Kratkiy ocherk istorii Xorezma v drevnosti // Priarale v drevnosti i srednevekove. — M. Vostochnaya literatura, 1998. — „V predelax oazisa zafiksirovano okolo 400 poseleniy arxaicheskogo vremeni, no lish gorodiще Kyuzeli-gir v levoberejnom Xorezme mojno schitat razvalinami ukreplennogo goroda“.
11. Drevneyshie gosudarstva Kavkaza i Sredney Azii. (pod obщ. redaksiey akad. B. A. Ribakova) — Moskva, izd. Nauka, 1985 g.
12. Xorezm. — Bolshaya sovetskaya ensiklopediya (v 30 tomax). 3-e izdanie, 1969-1978. Moskva, izd. “Sovetskaya ensiklopediiya”
13. Betts, Alison, Vadim N. Yagodin, Frantz Grenet, Fiona Kidd, Michele Minardi, Melodie Bonnat, and Stanislav Khashimov. „The Akchakhan-kala wall paintings: new perspectives on kingship and religion in Ancient Chorasmia.“ Journal of Inner Asian Art and Archaeology 7 (2016): 125-165.